



BOLA TARBIIYASIDA MAKTABGACHA TA'LIM, OILA VA JAMIYATNING O'RNI

Baymatova Nodira Akramovna

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar

1-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8265003>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 09-August 2023 yil

Ma'qullandi: 15-August 2023 yil

Nashr qilindi: 19-August 2023 yil

KEY WORDS

bola tarbiyasi, oila tarbiyasi, jamiyat ta'siri, kichik davlat, tarbiya bo'limlari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasining maqsadi: bolalarni o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezilari amalga oshiruvchi ta'lim - tarbiya jarayonini olib borishdir. Maktabgacha ta'lim tuassasasi maktabgacha ta'lim ustaviga muvofiq bo'lgan zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Bola tarbiyasida maktabgacha ta'lim, oila va jamiyatning o'rni hususida so'z yuritildi. Ushbu maqola orqali, bola tarbiyasiga maktabgacha ta'lim, oila va jamiyatning o'rni qay darajada ekanligi haqida ma'lumot olasiz.

Tarbiya - ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun, avvalo, tarbiyalanishi zarur. Abu Lays Samarqandiy «Bo'stonul-orifin» asarida tarbiya va tarbiyalashning ma'nosini ta'riflab: «Ey o'g'il, farzandlaringni tarbiyalashdan oldin o'zingni tarbiyala, tarbiya ko'rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga yetadi», - degan edi. Ibn Sino ijodiyotida ham bu g'oya alohida o'rin tutadi. «Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil», - deydi alloma. Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar.

Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama shaxsni shakllantirish.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tarbiyalanuvchilarning maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash;
- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;

- ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarining qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

Tarbiya qonuniyatlari - bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalardir.

Maktabgacha Ta'lim Muassasasining maqsadi: bolalarni o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezilari amalga oshiruvchi ta'lim - tarbiya jarayonini olib borishdir. Maktabgacha Ta'lim Muassasasi maktabgacha ta'lim ustaviga muvofiq bo'lgan zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Bolalar hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlashga doimo g'amxo'rlik qiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda tafakkur faoliyatini tarkib toptirishi, bu hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ularning muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga o'rgatishi lozim.

Bola shakllanishi va rivojlanishida qiziquvchanlik o'ziga xos xususiyatdir. U bolaning tevarakatrodagi voqea-hodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashida, hamma narsani ushlab, his qilib, diqqat bilan kuzatishida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni mustaqil javob qidirishga yo'llab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo'l qo'ymaydi. Bolalarni o'z navbatida tarbiyalab boradi.

Maktabgacha Ta'lim Muassasasi o'z navbatida ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishganlar. Bu esa bola tarbiyasida oila bilan hamkorlikning eng samarali usullaridan biridir. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;
- maktabgacha tarbiya muassasasining yillik ish rejasi to'g'risida;
- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi. Tarbiyachilar bola tarbiyasini shakllantirishda oila tarbiyasiga chambarchas bog'laydilar.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to'rt bo'limga ajratadi:

1. "Tarbiyaning zamoni".
2. "Badan tarbiyasi".
3. "Fikr tarbiyasi".
4. "Axloq tarbiyasi" haqida hamda uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritadi.

Shunday ekan bola tarbiyasi bir vaqtning o'zida "Maktabgacha ta'lim", "Oila" va "Jamiyat" nuqtai-nazarida shakllanib boradi. Biz oilani "davlat ichra kichik davlat"- deb ataymiz. Unda yangi inson, ya'ni davlatning yangi bir vakili dunyoga keladi. Kichik davlat - oila esa bu inson

uchun dastlabki hayot dorilfununi bo'ladi. Shu sababli ota - onalar farzandning birinchi o'qituvchisi va tarbiyachisidir. Farzandni barkamol va ma'naviy yetuk qilib o'stirish uchun, eng avvalo ota - onaning o'zi yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lishi kerak. Farzand tarbiyasini ota - onalar o'z shaxsiy ishi deb bilmasliklari kerak. Aslida bola tarbiyasi ota - onaning jamiyat oldidagi fuqarolik burchi va davlat oldidagi mas'uliyati hamda qarindosh - urug'lar oldidagi javobgarligi. Shuning uchun ham ota - ona obro'si farzand tarbiyasida ma'naviy ozuqa bo'ladi. Bu ma'naviy ozuqa bola tarbiyasida "ufq" ni ko'zlab ish tutishda mustahkam poydevor hisoblanadi. Bunday tarbiyalash jarayonida mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo'shib olib boradigan farzandlari hayotiga qiziqadigan va ularga oqilona, odilona rahbarlik qiladigan ota - onalar ijobiy o'rnak bo'ladigan kishilardir, ya'ni obro'li ota - onalardir. Bunday odamlar o'z farzandlari tarbiyasiga oilada ham, maktabgacha ta'limda ham e'tibor beradigan aqlli odamlar, namunali oilalar a'zolari bo'ladi.

Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta faktorlar ta'sirida tarkib topa di. Ulardan birinchisi odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri bo'lsa, ikkinchisi odamga uzoq muddat davomida sistemali beriladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siridir va nihoyat, uchinchi odamga nasliy yo'l bilan beradigan irsiy omillarning ta'siridir. Shunday qilib, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida bola shaxsini tarbiyalashda oila va jamiyatning ham roli nihoyatda katta ekanligini ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasida maktabgacha ta'lim, Oila va Jamiyatning ham birdek xissasi bordir. Chunki bola oilada ilk bor ta'lim- tarbiya olsa, uni maktabgacha ta'limda yanada shakllantiradi, mustahkamlaydi va qisqa tushuntirish, nasihat yoki o'yinlar orqali tarbiya elementlarini egallaydi. Egallagan tarbiyani esaalbatta jamiyat va o'zaro munosabatlarda qo'llaydi. Bu esa bola tarbiyasining asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.U. Hasanboyeva, M.X.Tojiyeva, Sh.K. Toshpo'latova va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma. (To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri). T.: «ILM ZIYO», 2011. — 184 b.
2. Kushmatova Maftuna Maxamadali qizi. Mavzu: Farzand tarbiyasida oilaviy munosabatlar va tarbiyaning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Bitiruv malaka ishi. Andijon-2017